

## FIZIKA YO'NALISHI TALABALARINI MUSTAQIL TA'LIM OLIHLARIDA MATN TUZISHNI AHAMIYATI

*Ismanova Odinaxon Tulkinboevna  
Namangan davlat universiteti dotsenti*

**Annotatsiya:** Oliy ta'lim tizimida fizika yo'nalishi talabalarining mustaqil ta'lim olishlarida, kurs ishi yoki referat yozishlarida matn tuzish ko'nikmasi to'la shakllanmagan bo'ladi. Shuning uchun ushbu ishda fizik bakalavr ta'lim yo'nalishida talabalariga matn tuzish ko'nikmalarini shakllantirish uslublari yoritilgan. Shu bilan birga talabalarda ma'lumotlarni tahlil qilib, ulardan o'rganilmagan jihatni topib so'ngra ilmiy tilda matn yozish uchun tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, ko'nikma va malaka, konsepsiyasiya, mustaqil ta'lim, talaba, masala, formula, laboratoriya ishi, gorizontal tekislik, usul.

Hozirgi zamonaviy ta'lim konsepsiyasiyaga ko'ra esa ta'lim jarayonini ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'qituvchi va o'quvchilarni birgalikdagi o'zaro ta'sirlashuvdan va o'quvchini mustaqil ta'lim olishidan iborat deb qarash mumkin. Ta'lim konsepsiyasiga mos holda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan usullarni ham ikkita katta guruhga ajratishimiz mumkin.

An'anaviy ta'limda asosan passiv ta'lim usullaridan foydalanilgan, ya'ni asosiy o'rinda o'qituvchi ilm manba hisoblanib o'quvchi esa ma'lumotlarni o'zlashtiruvchi sifatida qaralgan.

Zamonaviy ta'lim esa faol ta'lim usullaridan foydalanishni o'zini asosiy vazifasi sifatida qaralmokda. Faol ta'lim usullarida ta'lim jarayonida o'quvchi mustaqil subyekt hisoblanadi va u ta'lim jarayonida ma'lumot to'plashi, uni qayta ishlashi, qaror qabul qilishi va o'zi uchun yangi bilimlarni yaratishi lozim bo'ladi.

Faol ta'lim usullaridan biri "Loyihaviy faoliyat" usuli hisoblanadi [1,2]. Shuni hisobga olib so'nggi yillarda fizika bakalavr yo'nalishi talabalarda loyihaviy faoliyat olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun respublikamizdagi bir qator universitetlarda, jumladan Namangan davlat universitetining fizika bakalavr yo'nalishida pedagogik tadqiqotlar olib boryapmiz [3,4]. Olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki loyihaviy faoliyatni asosiy bosqichlardan biri barcha bajarilgan ishlarni umumlashtirgan holda hisobot yozish ko'nikmasi talabalarda yetarlicha shakllanmagan ekan. Respublikamiz o'rta va oliy ta'limida o'quvchi va talabalarning fizikaviy ta'lim faoliyatini taxlil qiladigan bo'lsak mustaqil matn tuzishga deyarli e'tibor qaratilmaganligini ko'ramiz. Shuning uchun muammoni samarali hal qilish uchun uning ob'ektiv sabablarini tahlil qilib so'ngra amalga oshirilishi kerak bo'ladigan vazifalarni belgilab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirgi ta'limda o'rta maktablarda o'quvchilar asosan laboratoriya ishlari uchun qisqa xisobot yozishsa, oliy o'quv yurtlari fizika ta'lim yo'nalishida ham talabalar kurs ishi, referat yoki laboratoriya ishiga hisobot yozadi. Ma'lumki har qanday hisobot bajarilgan ishlar va olingin ilmiy natijalarni mantiqiy ketma-ketlikda tuzilgan matnlar majmuasidan iborat.

Ammo loyihaviy faoliyatda loyihaviy muammoni tahlil qilib hal qilinadigan masalani asoslashda va hisobot yozishda matn tuzish ko'nikmasi barcha talabalarda to'la shakllanmagan bo'ladi chunki fizik bakalavr ta'lim yo'nalishida ba'zi bir topshiriqlarni ya'ni kurs ishi yoki biror bir mavzu bo'yicha referat yozish kabi faoliyatlarida talabalar matn tuzishdan foydalanishadi. Ammo ushbu faoliyat turlarida talabalar biror-bir kattaroq mavzuni adabiyotlardan o'qib tushunganlarini bayonlashtirishadi yoki konspekt qilishadi, shuning uchun ushbu turdagi mashg'ulotlar talabalarda matn tuzish ko'nikmasini shakllantirish uchun yetarli emas. Talabalar loyihaviy mavzuni asoslashda ular o'rganishi va yechim taqdim qilishi kerak bo'lgan muammoga doir ma'lumotlarni turli adabiyotlardan, jurnallar va internetdan izlab topishlari kerak, so'ngra yig'ilgan ma'lumotlarni mantiqiy ketma-ketlikda tuzib chiqib ularni o'zaro bog'lab mavzuni o'rganilganlik darajasi haqida matn tuzishlari talab qilinadi. Bundan tashqari ma'lumotlarni tahlil qilib ulardan o'rganilmagan jihatni topib so'ngra ilmiy tilda masala qo'yishlari zarur.

#### Amaliy mashg'ulotlarda talabalarda matn tuzish ko'nikmalarini shakllantirish

Bunday faoliyatni samarali amalga oshirish esa o'ziga yarasha tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Talabalarni matn tuzish ko'nikmalarini shakllantirish va so'ngra rivojlantirishda asosiy e'tiborni amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilishga qaratishi lozim. Amaliy mashg'ulotlarda biror-bir mavzuga oid masalalar tahlil qilib bo'lingach, ushbu mavzuga dahldor bo'lgan qandaydir fizik kattalikni topishga oid bir-biriga yaqin bo'lgan masalalarni taqqoslash, farqini anglash, reallikka yaqinlashtirish uchun yana nimalarni hisobga olish kerakligini tasavvur qilish kabi faoliyat olib borishdan boshlash kerak. Bunday sodda ko'rinishdagi matnlarni tuzishda quyidagi tamoyillarga amal qilish kerak ya'ni matnni kirish (tahlil) qismi; masala qo'yish va uni yechish; xulosa qilish.

Muammoni hal qilishga bu kabi yondashuvdan maqsad ko'rilgan masalalarni tahlil qilish, taqqoslash kabi faoliyatda matn tuzish zarurati paydo bo'ladi.

Namuna sifatida quyidagi ikkita masala asosida qisqa matn tuzishni qarab chiqamiz.

**Masala 1.** Absolyut tekis gorizontal tekislikda massalari bir xil  $m$ , zaryadlari  $q$  va  $Q$  bo'lgan brusoklar  $L_0$  uzunlikdagi ip bilan bog'langan holda muvozanatda turibdi. Ip kuydirib yuborilgach ular harakatga keladi, brusoklarning maksimal tezligini toping.

**Masala 2.** Gorizontal tekislikda massalari bir xil  $m$ , zaryadi  $q$  va  $Q$  bo'lgan brusoklar bir-biriga  $L_0$  uzunlikdagi ip yordamida bog'langan. Ip uzib yuborilgach brusoklar harakatga kelsa ularni maksimal tezligini toping. Brusoklar bilan tekislik o'rtasidagi ishqalanish koeffitsienti  $\mu$  ga teng.

Talabaga har ikki masala yechimidan foydalanib undagi o'rganilmagan muammoni aniqlash va u asosida yangi masala qo'yish vazifa sifatida beriladi va bajargan ishlari bo'yicha yozma hisobot talab qilinadi. Ushbu holatda talabaga har ikki masalani yechimi bilan beriladi va yechimda masalani to'g'ri javobiga ta'sir ko'rsatmaydigan ba'zi xatoliklarga yo'l qo'yiladi ya'ni kuchlarni vektor

qo'rinishdagi formulasini bermaslik yoki real holatdagi barcha kuchlarni hisobga olib o'zaro taqqoslashni bajarmaslik kabi kamchiliklarga yo'l qo'yiladi. Hisobot uchun matn tuzishni boshlagan talaba avval kirish qismida har ikki masalani (ba'zida ko'proq bo'lishi xam mumkin) alohida tahlil qilib masala berilishida, yechimida va olingan javobni asoslanishidagi kamchiliklarni sanab o'tadi, so'ngra har ikki masaladagi umumiy reallikka yaqinlashish uchun kamchiliklarni aniqlaydi. Ushbu jarayondan so'ng ushbu kamchiliklarni bartaraf etsa qanday natijalarga erishish mumkinligini asoslaydi va hisobotni ikkinchi qismini boshlaydi. Hisobotni ikkinchi qismida esa masala tuzadi, uni ishlash uchun metodlar tanlaydi va ishlash jarayonidagi asosiy qonun-qoidalar va formulalardan nima uchun foydalanganligini bayon qiladi. Talaba o'zi yechimni to'g'ri ekanligini asoslashni va u yordamida yana nimalar haqida qo'shimcha ma'lumot olish mumkinligini ko'rsatib o'tadi. Ushbu ishlar bajarilgach qisqa xulosa yozadi.

### **Xulosa**

Amaliy mashg'ulotlarda biz taklif qilgan usuldan foydalanilganda talabalar matn tuzish faoliyatini o'zlashtirish bilan birgalikda o'zlarida quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiriladi: mantiqiy mulohaza yuritish va asoslash, o'z qarashlarini va fikrlarini isbotlash, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, o'z fikrida turish. Bu esa o'z navbatida talabada bir qarashda hamma narsa to'g'ri ko'ringan joydan muammoni, ziddiyatni, kamchilikni sezish, keyinchalik muammoni chuqur ichiga kirib borish, fikrlashni mahsuldorligi, egiluvchanligi va o'ziga hosligi kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlash va mustaqil loyiha bajara oladigan bo'lishlari uchun mutaxassislik kafedra professor-o'qituvchilari fizika sohasidagi barcha predmet va fanlardan bir maqsadga yo'naltirilgan kompleks o'quv reja va o'quv dasturlar ishlab chiqishlari va unda xar bir soha bo'yicha hisobot yozishni rejalashtirishlari zarur.

### **Adabiyotlar**

7. Гужеев В.В. «Метод проектов» как частный случай интегративной технологии обучения. Директор школы, 1995. – № 6. – С. 39-47.
8. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования : учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров. – Москва: Академия, 2002. -273 с.
9. Bobaxo'jaev U., Ismanova O., Yarimo'tkazgichlar fizikasi mutaxassislarini kreativlik xususiyatlarini shakllantirishda loyihalash faoliyatini ahamiyati. "Yarim o'tkazgichli opto- va nanoelektronika, muqobil energiya manbalari hamda ularning istiqbollari" mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya. – Andijon, 2023. 12–13 oktabr. B. 362–365.
10. Бобахўжаев У., Исманова О., Физика йўналиши талабаларида лойиҳалаш фаолиятини шакллантиришда зарур педагогик тавсиялар. Материалы международной научной конференции "Тенденции развития физики конденсированных сред" ФерГУ. 30-31 октябрь. 2023 г. с.439-441